

## V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI <sup>1)</sup>



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning yanvar- fevral oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 3 789 458,5 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, foyda hajmi 530 716,6 mln. so'm yoki 6,3 foizga oshdi.

2023- yilning yanvar- fevral oylarida faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija 3 768 883,0 mln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,7 foizga kamaygan.

### 2023- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

|  | <i>Foyda, zarar<br/>(+, -)</i> | <i>O'sish sur'ati,<br/>% da</i> |
|--|--------------------------------|---------------------------------|
|  | mln. so'm                      |                                 |
| <b>Jami</b>  | <b>3 768 883,0</b>             | <b>81,3</b>                     |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash   | 242 420,9                      | 149,4                           |
| Ishlab chiqaradigan sanoat   | 3 474 644,9                    | 78,4                            |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash                                | -1,2                           | -                               |
| Qurilish   | 667,3                          | -                               |
| Savdo  | -4 173,5                       | -                               |
| Tashish va saqlash   | 2 384,0                        | 65,1                            |
| Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish | 792,8                          | -                               |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar  | 150,4                          | 14,6                            |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat   | 2 604,1                        | -                               |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish                             | 27,3                           | 31,3                            |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi   | -                              | -                               |

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

|  | <i>Foyda, zarar<br/>(+, -)</i> | <i>O'sish sur'ati,<br/>% da</i> |
|--|--------------------------------|---------------------------------|
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | -                              | -                               |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 951,5                          | 102,7                           |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga – 3 474 644,9 mln. so'mga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalariga – 242 420,9 mln. so'mga, professional, ilmiy va texnik faoliyat– 2 604,1mln. so'mga, tashish va saqlash – 2 384,0 mln. so'mga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 951,5 mln. so'mga, Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalariga – 792,8 mln. so'mga, qurilish korxonalariga – 667,3 mln. so'mga, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar korxonalariga – 150,4 mln. so'mga, boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish– 27,3 mln. so'mga, to'g'ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi Savdo korxonalariga minus 4 173,5 mln. so'mga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga minus 1,2 mln. so'mga, so'mga, to'g'ri keladi.

2023-yilning yanvar- fevral oylarini o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o'sishi “O'zdonmahsulot” AK (1 711,2 mln. so'm), “Navoiyuran” Davlat korxonasi (291 210,3 mln. so'm), “O'zcharmsanoat” uyushmasi (3 711,2 mln. so'm) ga kiruvchi korxonalarga to'g'ri keldi.

**2023- yil yanvar-fevral oylarida foydaning o'sish  
sur'ati yuqori bo'lgan vazirlik va idoralar**

|                               | <i>Foyda, zarar (+,-),<br/>mln. so'm</i> | <i>O'sish sur'ati,<br/>% da</i> |
|-------------------------------|--|---------------------------------|
| “O'zdonmahsulot” AK           | 1 711,2                                  | 183,0                           |
| “Navoiyuran” Davlat korxonasi | 291 210,3                                | 150,8                           |
| “O'zcharmsanoat” uyushmasi    | 3 711,2                                  | 101,0                           |

Foydaning pasayishi O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi – 10 400,1 mln. so'm, “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi – 2 198,8 mln. so'm, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi – 36,3 mln. so'm, O'zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati korxonalari uyushmasi – 14,2 mln. so'm kabi yuqoridagi vazirlik va idoralar tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.


**2023- yil yanvar- fevral oylarida foydaning  
pasayishi yuqori bo'lgan vazirlik va idoralar**

|  | <i>Foyda, zarar (+,-),<br/>mln. so'm</i> | <i>O'sish sur'ati,<br/>% da</i> |
|--|--|---------------------------------|
| O'zbekiston elektrotexnika sanoati<br>korxonalari uyushmasi uyushmasi                      | 10 400,1                                 | -                               |
| “O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi  | 2 198,8                                  | -                               |
| O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va<br>atrof-muhitni muhofaza qilish davlat<br>qo'mitasi | 36,3                                     | -                               |
| O'zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati<br>korxonalari uyushmasi                         | 14,2                                     | -                               |

**2023-yil yanvar- fevral oylarida hududlar  
kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

|               | <i>Foyda, zarar<br/>(+, -)</i> | <i>O'sish sur'ati,<br/>% da</i> |
|---------------|--------------------------------|---------------------------------|
| <b>Jami</b>   | <b>3 768 883,0</b>             | <b>81,3</b>                     |
| Navoiy sh.    | 3 771 540,2                    | 81,7                            |
| Zarafshon sh. | -6 338,6                       | -                               |
| G'ozg'on sh   | 161,5                          | -                               |
| Karmana t.    | -7 911,4                       |                                 |
| Konimex t.    | 481,2                          | 8,8 m.                          |
| Qiziltepa t.  | 5 121,2                        | 101,0                           |
| Navbahor t.   | 5 662,8                        | 85,2                            |
| Nurota t.     | -                              | -                               |
| Tomdi t.      | -                              | -                               |
| Uchquduq t.   | -                              | -                               |
| Xatirchi t.   | 166,1                          | 67,4                            |

**2023- yil yanvar- fevral oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**  
(2022- yil yanvar- fevralga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shahar 3 771 540,2 mln. so‘m, Navbahor tumani 5 662,8 mln. so‘m, Qiziltepa tumani 5 121,2 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2023- yilning yanvar- fevral oylarida 11 ta korxona 20 575,5 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi O‘zbekiston elektrotexnika sanoati” korxonalari uyushmasi, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023- yil yanvar- fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

|  | <i>Korxonalar soni</i> | <i>Zarar so‘mmasi</i> |                              |
|--|------------------------|-----------------------|------------------------------|
|  |                        | <i>mln. so‘m</i>      | <i>jamiga nisbatan, % da</i> |
| <b>Jami</b>  | <b>11</b>              | <b>20 575,5</b>       | <b>100,0</b>                 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat   | 5                      | 12 816,8              | 62,3                         |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash                              | 1                      | 1,2                   | -                            |
| Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 2                      | 792,8                 | 3,8                          |
| Tashish va saqlash   | 1                      | 32,1                  | 0,2                          |
| Savdo  | 1                      | 6 931,4               | 33,7                         |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish                           | 1                      | 1,2                   | -                            |

**2023- yil yanvar- fevral oylarida hududlar kesimida zarar  
ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

|                  | <i>Korxonalar soni</i> | <i>Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, % da</i> | <i>Zarar so'mmasi, mln. so'm</i> |
|------------------|------------------------|--|----------------------------------|
| <b>Jami</b>      | <b>11</b>              | <b>100,0</b>                                     | <b>20 575,5</b>                  |
| Navoiy shahar    | 5                      | 14,7   | 3 031,1                          |
| Zarafshon shahar | 3                      | 33,8   | 6 964,7                          |
| Karmana tuman    | 2                      | 51,4   | 10 565,5                         |

**Korxona va tashkilotlarning debitorlik va  
kreditorlik qarzdorligi holati<sup>1)</sup>**



2023 - yil 1-mart holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 5 038 012,7 mln. so'mni tashkil qildi, shundan muddati o'tgan – 137 147,8 mln. so'm yoki jami qarzdorlikning 2,7 foizi.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2022- yil 1- martga nisbatan solishtirganimizda 5,1 foizga kamaygan bo'lsa, jami debitor qarzdorlik o'tgan yilga nisbatan 31,3 foizga kamaygan.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 4 114 195,1 mln. so'm (viloyat bo'yicha jami debitor qarzdorlikning 81,7 foiz), Karmana tumani 642 051,6 mln. so'm (viloyat bo'yicha jami debitor qarzdorlikning 12,7 foiz), Navbahor tumaniga 140 525,6 mln. so'm (2,8 foiz), Qiziltepa tumaniga 103 302,3 mln. so'm (2,1 foiz), Konimex tumaniga 29 762,2 mln. so'm (0,6 foiz) to'g'ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Xatirchi tumani 4 152,1 mln. so'm (0,1 foiz), G'ozg'on shahri 3 035,6 mln. so'm (0,1 foiz), Zarafshon shahri 988,2 mln. so'm (0,02 foiz) ga pastligini ko'rish mumkin.

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

**2023- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

|  | <i>Jami,<br/>mln.so'm</i> | <i>undan:</i>                              |  |                           | <i>Muddati<br/>o'tgan<br/>qarzdor-<br/>likning<br/>ulushi,<br/>% da</i> |
|--|---------------------------|--|--|---------------------------|---|
|  |                           | <i>xaridor va<br/>buyurtma-<br/>chilar</i> | <i>etkazib<br/>beruvchilarga va<br/>pudratchilarga<br/>berilgan<br/>avanslar</i> | <i>ichki<br/>idoraviy</i> |   |
| <b>Jami</b>  | <b>137 147,8</b>          | <b>137 062,1</b>                           | -  | -                         | <b>100,0</b>  |
| Ishlab chiqaradigan sanoat   | 106 217,6                 | 106 138,4                                  | -  | -                         | 77,4  |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash                              | -                         | -  | -  | -                         | -   |
| Qurilish   | 5 601,4                   | 5 594,8                                    | -  | -                         | 4,1   |
| Tashish va saqlash   | 1 098,0                   | 1 098,0                                    | -  | -                         | 0,8   |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar  | 19 556,9                  | 19 556,9                                   | -  | -                         | 14,3  |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat   | 1 224,0                   | 1 224,0                                    | -  | -                         | 0,9   |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish | 3 450,0                   | 3 450,0                                    | -  | -                         | 2,5   |

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2023- yil 1- mart holatiga jami debitor qarzdorligi 3 828 206,0 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 76,0 foizini tashkil qildi.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlikni 2022-yil 1- martga nisbatan solishtirganimizda 15,6 foizga kamaygan.

2023- yil 1- mart holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 5 743 086,2 mln. so'm, undan muddati o'tgan – 65 997,9 mln. so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,1 foizni tashkil etdi.

Muddati o'tgan kreditor qarzdorlikni 2022-yil 1-martga nisbatan solishtirganimizda 11,1 foizga oshgan bo'lsa, jami kreditor qarzdorlik o'tgan yilga nisbatan 24,1 foizga oshgan.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2022- yil 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorligi 4 539 766,8 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 79,0 foizni tashkil qildi, shu jumladan muddati o'tgan – 49 992,1 mln. so'm yoki mos ravishda 5,3 foizga kamaygan.

**2023- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

|  | <i>Jami,<br/>mln.<br/>so'm</i> | <i>undan:</i>   |                             |   |                           |                                      | <i>Mudda-<br/>ti o'tgan<br/>qarzdorl<br/>ik-ning<br/>ulushi,<br/>% da</i> |
|--|--------------------------------|---|-----------------------------|---|---------------------------|--------------------------------------|---|
|  |                                | <i>etkazib<br/>beruvchi<br/>lar va<br/>pudrat-<br/>chilarga</i> | <i>olingan<br/>avanslar</i> | <i>davlat<br/>maqsadli<br/>fondlariga<br/>to'lovlar</i> | <i>ichki<br/>idoraviy</i> | <i>mehnat<br/>ga haq<br/>to'lash</i> |   |
| <b>Jami</b>  | <b>65 997,9</b>                | <b>64 899,7</b>   | <b>1 098,2</b>              | <b>-</b>  | <b>-</b>                  | <b>-</b>                             | <b>100,0</b>  |
| Ishlab chiqaradigan sanoat   | 61 551,6                       | 60 453,4  | 1 098,2                     | -   | -                         | -                                    | 93,3  |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash                            | -                              | -   | -                           | -   | -                         | -                                    | -   |
| Tashish va saqlash   | -                              | -   | -                           | -   | -                         | -                                    | -   |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar  | 4 317,3                        | 4 317,3   | -                           | -   | -                         | -                                    | 6,5   |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish | 129,0                          | 129,0   | -                           | -   | -                         | -                                    | 0,2   |

2023- yil 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 705 073,5 mln. so'mni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Konimex tumani 8 471,3 mln. so'm (71,5 foiz), G'ozg'on shahri 192,3 mln. so'm (93,7 foiz) ga to'g'ri keldi.